



ISSUES OF PREVENTING CONFLICTS OF INTEREST IN FOREIGN COUNTRIES

Ruzimov Zafar Zakir ugli

Khorezm Region Special Project Construction Repair

State scientific production

Territorial Department of the Association legal counsel

rozimovzafar24@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15095051>

ARTICLE INFO

Received: 22nd March 2025

Accepted: 26th March 2025

Online: 27th March 2025

KEYWORDS

Management, state, civil servants, public procurement, interests, conflict, public interests, causing harm, corruption, prevention.

ABSTRACT

This article analyzes the issues of preventing conflicts of interest in foreign countries. In particular, the article examines and highlights issues of preventing conflicts of interest in developed and CIS countries.

ВОПРОСЫ ПРЕДОТВРАЩЕНИЯ КОНФЛИКТА ИНТЕРЕСОВ В ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ

Рузимова Зафара Зокир угли

Хорезмская область Специальный Проект Строительство Ремонт

Государственное научное производство Территориальный отдел объединения юрисконсульт

rozimovzafar24@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15095051>

ARTICLE INFO

Received: 22nd March 2025

Accepted: 26th March 2025

Online: 27th March 2025

KEYWORDS

Управление, государство, государственные служащие, государственные закупки, интересы, конфликт, общественные интересы, причинение вреда, коррупция, предотвращение.

ABSTRACT

В данной статье анализируются вопросы предотвращения конфликта интересов в зарубежных странах. В частности, в статье рассматриваются вопросы предотвращения конфликта интересов в развитых странах и странах СНГ.

XORIJIY DAVLATLARDA MANFAATLAR TO'QNASHUVINING OLDINI OLIH MASALALARI



Ro'zimov Zafar Zokir o'g'li

Xorazm viloyati Maxsus Loyiha Qurilish Ta'mir

Davlat ilmiy ishlab chiqarish Birlashmasi Xududiy bo'limi yuriskonsulti

rozimovzafar24@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15095051>

ARTICLE INFO

Received: 22nd March 2025

Accepted: 26th March 2025

Online: 27th March 2025

KEYWORDS

*Boshqaruv, davlat, davlat
xizmatchilari, davlat
xaridlari, manfaatlar,
to'qnashuv, jamoat
manfaatlari, zarar
yetkazish, korrupsiya, oldini
olish.*

ABSTRACT

Mazkur maqolada xorijiy davlatlarda manfaatlar to'qnashuvining oldini olish masalalari tahlil etilgan. Jumladan maqolada rivojlangan va MDH davlatlarida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish masalalari o'rganilib yoritib berilgan.

Jahonda globalizatsiya jarayonlarining tobora rivojlanishi sababli davlat va nodavlat sektorda korrupsiya va uning bir ko'rinishi bo'lgan manfaatlar to'qnashuvining zamonaviy va yashirin ko'rinishlari yuzaga kelmoqda. Shu jihatdan, har bir mamlakat o'zining ichki huquqiy tizimi, korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati va huquqiy pozitsiyasidan kelib chiqib, mavjud amaliyotni takomillashtirish va sohaga zamonaviy standartlarni tatbiq etishga alohida e'tibor qaratmoqda.

Manfaatlar to'qnashuvi ga doir masalalar yuzasidan xorijiy davlatlar tajribasiga to'xtaladigan bo'lsak, davlatlarning bu masalaga turlicha yondashuvini ko'rishimiz mumkin. Lekin ma'no-mazmun jihatidan bir biriga juda yaqin hisoblanadi.

Davlatlararo turli sohalar bo'yicha xalqaro hamkorlikning rivojlanishida BMTning o'rni va uning tizim tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan ishlar alohida ahamiyatga ega. BMT tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish borasida qabul qilingan xalqaro hujjatlar boshqa xalqaro, mintaqaviy tashkilotlar va davlatlarning korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi norma ijodkorligi jarayonlarida asosiy standart bo'lib xizmat qilmoqda.

BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan korrupsiyaga qarshi kurash borasida qabul qilingan universal xalqaro hujjatlarda davlat boshqaruvida manfaatlar to'qnashuvi ga aynan to'xtalmagan bo'lsada, lekin ma'nosi jihatidan yaqin hisoblanadi. Bu hujjatlar quyidagilardan iborat:

1) BMT Bosh Assambleyasining 34/169-son rezolyusiyasi bilan 1979-yil 17-dekabrda qabul qilingan Huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslarning Xulq-atvor kodeksi;

2) BMT Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashining 1986/61-son rezolyusiyasi bilan 1989-yil 24-mayda qabul qilingan Huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslarning Xulq-atvor kodeksini samarali amalga oshirishi uchun rahbariy prinsiplar;



3) BMT Bosh Assambleyasining 51/59-son rezolyusiyasi bilan 1996-yil 12-dekabrda qabul qilingan Davlat mansabdor shaxslarining Xalqaro xulq-atvor kodeksi va boshqalar.¹ Yevropa Kengashi va YI ham faoliyati doirasida qabul qilingan korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi normativ-huquqiy hujjatlarini ishlab chiqishgan.

Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari Iqtisodiy hamkorlik va rivojlantirish tashkilotining (IHRT) doimiy e'tiborida bo'lganligi sababli tashkilot tomonidan maxsus xalqaro hujjat ishlab chiqilgan. IHRT doirasida 1997-yil 17- dekabrda qabul qilinib, 1999-yil 15-fevralda kuchga kuchgan "Xorijiy davlat mansabdor shaxslariga pora berishga qarshi kurashish to'g'risida"gi Konvensiya tashkilotga a'zo davlatlarning amaldagi qonunchiligini takomillashtirishni nazarda tutadi.

Xorijiy mamlakatlar amaliyotida davlat xizmatchilari xulq-atvor standartlarini ishlab chiqish va takomillashtirish davlat xizmatini isloh qilishning majburiy tarkibiy qismiga aylandi. Xalqaro tashkilotlar (masalan, BMT, IHTT, Transparency International, Jahon banki) davlatlarning milliy qonunchiligida davlat xizmatchilari o'dob-axloqi haqidagi normalar mavjudligiga jiddiy e'tibor qaratadi va ularni yanada takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berib boradi.

Ushbu tavsiyalar turli mamlakatlarda maxsus ishlab chiqilgan kasbiy etika qoidalariga asos bo'ladi. Umuman olganda, davlat xizmatchilariga nisbatan xulq-atvor standartlarini belgilab beradigan hujjatlar: "Davlat xizmatchilari uchun xulq-atvor qoidalar", "Etika kodeksi", "Xulq-atvor standartlari" deb nomlanishi mumkin. Shu kabi kodekslar Yevropaning ko'plab davlatlarida (Fransiya, Germaniya, Ispaniya, Buyuk Britaniya, Kanada, AQSh, Yaponiya, Qozog'iston va boshqalarda) mavjud.

Davlat xizmatchilari uchun xulq-atvor standartlarining bunday mustahkamlanishi Davlat xizmatining o'dob-ahloq qoidalarining davlat xizmati qonunchiligining ajralmas qismi sifatida shakllanishiga olib kelgan. Bunda davlatlararo va mintaqaviy darajada qabul qilingan model qonunlar ham muhim ahamiyat kasb etgan. Masalan, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1996-yil 12- dekabrda qabul qilingan Davlat mansabdor shaxslarining o'dob-axloqi to'g'risidagi Xalqaro Kodeks va 2000-yil 11-maydagi Yevropa Kengashi vazirlar qo'mitasi tomonidan qabul qilingan "Davlat xizmatchilarining xulq-atvor model" Kodeksiga a'zo davlatlar qonunchiligining bir xilda rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Xorijiy mamlakatlar amaliyotida davlat xizmatchilarining o'dob-axloqiga rioya etishi ustidan nafaqat ichki idoraviy nazorat balki tashqi nazorat amaliyoti ham rivojlanib bormoqda. Masalan, Janubiy Koreyada Kadrlar boshqaruvi vazirligi davlat xizmatchilarining mehnat etikasi va intizomi nazorati masalalari bilan shug'ullanadi².

Ko'pgina Yevropa mamlakatlarida "manfaatlar to'qnashuvi" tushunchasi va uning oldini olish mexanizmlari davlat xizmati to'g'risidagi umumiy qonunlar bilan belgilanadi. Masalan, Polshada "Davlat xizmati to'g'risida"gi, "Davlat funksiyalarini bajaruvchi shaxslarning tadbirkorlik faoliyatida ishtirok etishni cheklash to'g'risida"gi qonunlar, Avstriyada "Davlat xizmati to'g'risida"gi Qonun va Jinoyat kodeksi, Islandiyada "Davlat boshqaruvi to'g'risida"gi Qonun va Gretsiyada "Davlat xizmati to'g'risida"gi Kodeksi. Shu bilan birga, Sharqiy

¹ Korrupsiyaga qarshi kurashish. Darslik. // Mas'ul muharrir: A.Sh. Bekmurodov: – Toshkent: "Akademiya", 2022. – 214-215 b

² Kim Pak Sok Davlat boshkaruvida inson resurslari 2018 -yil nigohida. Ministry of Personnel Management. 2018. – 3 b



Yevropaning ba'zi davlatlarida va postsovet mamlakatlarida manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida maxsus qonunlar qabul qilingan (Serbiya, Xorvatiya, Latviya, Litva, Moldova, Qirg'iziston)³.

Korrupsiyaga oid jinoyatlarni va davlat boshqaruvida manfaatlar to'qnashuvini oldini olish va ularga qarshi kurashishda xorijiy tajribani o'rganish g'oyat muhim sanaladi. Shundan kelib chiqib, korrupsiyaga qarshi kurashda xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish hamda ularni yutuqlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish foydadan xoli bo'lmaydi.

Amerika Qo'shma Shtatlarida korrupsiyaning oldini olishga jiddiy e'tibor qaratilada. Boshlang'ich va o'rta maktablarda ommaviy axloq bo'yicha darslar olib boriladi. AQSH Davlat xizmati boshqarmasi o'z veb-saytida ijro hokimiyatidagi xodimlarning zarur axloqiy va kasbiy fazilatlarini to'g'risidagi ma'lumotlarni e'lon qilib boradi. Amerika Qo'shma Shtatlaridagi deyarli barcha federal davlat idoralari muntazam ravishda (odatda yiliga bir marta) korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi mashg'ulotlarda ishtirok etadilar. Aksariyat bo'limlarda qonunbuzarliklarni aniqlash uchun Ichki nazorat xizmati (Internal Revenue Service) kabi ixtisoslashtirilgan bo'limlar tashkil etilgan. Bundan tashqari, agar mansabdor shaxs nojo'ya xatti-harakat sodir qilsa, lekin bu haqda ichki nazorat xizmati xodimlarini xabardor qilgan bo'lsa, u jazolanmaydi. Ushbu qoida beixtiyor xatoga yo'l qo'ygan va bu haqda darhol xabar bergan halol xodimlarni rag'batlantirishga qaratilgan⁴

Ma'lumki, korrupsiyaga qarshi kurashda AQSh amaliyoti o'ziga xos xususiyat kasb etadi. 1990-yil AQShda qabul qilingan "Davlat xizmatchilari va amldorlarining axloq qoidalari prinsiplari to'g'risida" ⁵gi, 1978-yildagi "Davlat muassasalari axloq qoidalari to'g'risida"⁶gi federal qonunlar tizimi amal qilib kelinmoqda.

AQShda 1977-yildan AQSh Kongressi Senati a'zolari va AQSh Kongressi Vakillik Palatasi a'zolarining axloq – xulqi Kodeksi amal qiladi. AQSh qonunchiligiga ko'ra, davlat xizmati mansabdor shaxsning o'z majburiyatini halol bajarishga to'sqinlik qiluvchi har qanday moliyaviy va shaxsiy manfaatlardan holi bo'lgan faoliyat turi sifatida belgilaydi. Davlat xizmatchilari maxfiy davlat ma'lumotlarini o'z manfaatlari yo'lida foydalanishlari mumkin bo'lgan moliyaviy operatsiyalarda qatnashishlari mumkin emas. Davlat xizmatchilari ularga ma'lum bo'lgan suiiste'molliklar va korrupsiya jinoyatlari haqida tegishli idoralarga ma'lum qilishlari shart⁷.

AQSh prezidenti tomonidan tayinlangan amaldorlar xizmat davri mobaynida o'z vakolatlaridan tashqariga chiquvchi faoliyat uchun har qanday daromad olish ta'qiqlanadi.

Amerikaning ayrim qonunchiligida kim (sovg'a beruvchi) tomonidan, kimga (xizmatchiga) va nima sovg'a berish mumkinligi yuridik jihatdan belgilangan bo'lib, sovg'a beruvchi tomonidan bir nechta sovg'a berilgan vaqtda ham uning summasi 20 dollardan

³ Axmetov A N. Konflikt interesov na gosudarstvennoy slujbe. // Vlast' 2013/12. – S.124

⁴ Материалы по обобщению опыта иностранных государств по реализации антикоррупционных образовательных программ, подготовленные Министерством образования и науки совместно с министерством иностранных дел Российской Федерации от 31.05.2011 г. за №МОН-П-1389.

⁵ "Davlat xizmatchilari va amldorlarining axloq qoidalari printsiplari to'g'risida" gi federal Qonunl 1990-yil AQShda qabul qilingan

⁶ "Davlat muassasalari axloq qoidalari to'g'risida"gi Federal Qonunl 1978-yilda qabul qilingan

⁷ Николайчик В.М. Правовое регулирование этики официальных лиц в США // США. Экономика. Политика. Идеология. – М., 1998. - №5. – С. 89-93.



oshmasligi, sovg'aning umumiy miqdori yiliga 50 dollardan oshmasligi belgilangan. Aytish joizki, xizmatchini xizmat xonasida taqdirlash taqiqlanadi. Davlat xizmatchisi bolalarining to'yi va tug'ilgan kunlarida, kasal bo'lgan davrida taqdirlanishi mumkin, bunda hadya qiymati 10 dollardan oshmasligi shart⁸.

1985-yili Kanadada davlat xizmatchilarining axloq kodeksi qabul qilingan. Unga ko'ra, barcha davlat xizmatchilari o'z xizmat vazifasi va shaxsiy manfaatlari to'qnashganda amal qilishi lozim bo'lgan qoidalar ko'rsatilgan. Ushbu kodeks 4 qismdan iborat bo'lib, uning birinchi qismida davlat xizmatchisining majburiyatlari bilan bog'liq umumiy qoidalar ko'rsatilgan...⁹.

Kanadada 2006-yilda manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha alohida qonun qabul qilingan (Conflict of Interest Act) hamda mafaatlari to'qnashuvi va axloq bo'yicha komissar (Conflict of Interest and Ethics Commissioner) lavozimi joriy etilgan, bu esa Kanada parlamenti a'zolari, Vazirlar Mahkamasi, davlat korxonalari raislari va direktorlar kengashi a'zolari tomonidan ma'muriy resurslardan foydalanish, lobbistik harakatlar hamda manfaatlar to'qnashuvini kamaytirishga imkon beradi. Bu kabi holatlar Xorvatiya Qonun chiqaruvchisi tomonidan ham tanlangan, ya'ni mazkur davlatning korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasi 2011-yildagi "Manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish to'g'risida"¹⁰gi Qonunga asoslangan.

Kanadaning "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonunida davlat xizmatchilarining ishga kirishda, qaror qabul qilishda, davlat xizmatida aniqlagan ma'lumotlarni o'z manfaatlari yo'lida ishlatmasligi bo'yicha majburiyatlar, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha choralar, Manfaatlar to'qnashuvi va etika bo'yicha komissarning vakolat va majburiyatlari hamda mazkur qonun talablarini buzganlik uchun javobgarliklar belgilangan.

Chexiyaning "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"¹¹gi Qonunida davlat mansabdor shaxslariga nisbatan chekovlar, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish, ularni aniqlash, bartaraf etish hamda mas'ul bo'linmalar faoliyatli, ularning majburiyatlari belgilangan.

Latviyaning "Davlat xizmatchilari faoliyatida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish to'g'risida"¹²gi Qonunida davlat mansabdor shaxslariga nisbatan chekovlar, manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha ayrim choralar belgilangan. Shuningdek, manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish sohasida vakolatli organ sifatida Korrupsiyaga qarshi kurashish byurosi belgilangan.

Xorvatiyaning "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"¹³gi Qonunida davlat xizmatchilari tomonidan manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida xabar berish majburiyatlari, Manfaatlar

⁸ <http://insonvagonun.uz/node/157>

⁹ "Korrupsiya: qonun va javobgarlik" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy seminar materiallari to'plami/ Toshkent – 2017 / B.H.Hamidov . Korrupsiyaga qarshi kurashda xorijiy mamlakatlartajribasi, 35-b

¹⁰ A.M.Sirin, V.V.Seval'nev. Kategoriya "Konflikt interesov" po zakonadatelstvu Rossiyskoy Federatsii, Kitayskoy Narodnoy Respubliki i drugix zarubejnx stran. Moskva, Infra-M-2016. S. 157-166

¹¹ "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"¹¹gi Qonuni Закон от 27 апреля 2006 г. № 159/2006 «О конфликте интересов»(Zákonč.159/2006Sb.Ostřetuzájmu),(чеш.);Источник:https://anticor.hse.ru/main/country/Czech_Republic © Антикоррупционный центр НИУ ВШЭ

¹² "Davlat xizmatchilari faoliyatida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish to'g'risida"gi Qonuni Закон от 25 апреля 2002 г. «О предотвращении конфликта интересов в деятельности государственных служащих» Источник: <https://anticor.hse.ru/main/country/Latvia> © Антикоррупционный центр НИУ ВШЭ

¹³ "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonuni Источник: <https://anticor.hse.ru/main/country/Croatia> © Антикоррупционный центр НИУ ВШЭ



to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha komissiyani tashkil etish, faoliyati va uning vakolatlari, mazkur Qonun talablarini bajarmaganlik uchun intizomiy jazo choralari belgilangan.

Gruziyaning "Davlat xizmatidagi manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiya to'g'risida"¹⁴gi Qonunida davlat xizmatchilari tomonidan manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida xabar berish majburiyati hamda ularni tartib solish bo'yicha choralar amalga oshirish, jamiyat manfaatlariga va davlat muassasasining obro'siga ta'sir etuvchi holatlar to'g'risida xabar bergan shaxslar daxlsizligini saqlash bo'yicha tartiblar belgilangan.

Koreya Respublikasida esa 1981-yildagi "Davlat xizmati etikasi to'g'risidagi"¹⁵ 3520-sonli Qonuniga asosan 1993-yildan boshlab davlat xizmatchilari orasida korrupsiya va mafaatlari to'qnashuvi ga qarshi kurashda, ularning daromad, xarajati va mulklarini nazorat qilish mexanizimi hisoblanuvchi aktivlar deklaratsiyasi amaliyotga tadbqiq etildi. Ushbu qonunning 4-moddasiga asosan, barcha yuqori darajadagi mansabdor shaxslar ularning oila a'zolari moddiy va nomoddiy mulklari to'g'risidagi ma'lumotlarini hamda tashkilotlardagi ulushlarni yoki aloqalarinigina ma'lum qilishlari kerak. Ma'lumotlarni ko'rsatish belgilangan ko'rsatgichdan ortgan qiymatlarini deklaratsiyada ko'rsatishi lozim.

Xitoy Xalq Respublikasi. Xitoy Xalq Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish alohida ahamiyatga ega, ammo tarixiy va siyosiy voqealar ("madaniy inqilob", davlat rivojlanishining dastlabki bosqichidagi iqtisodiyotning ma'muriy-buyruqbozlik tuzilishi) bilan bog'liq holda, manfaatlar to'qnashuvlarini aniqlash va hal etish mexanizmlari elementlari 1980-yillarning oxirlarida, islohot va ochiqlik siyosati boshlanganidan so'ng yaratila boshlangan¹⁶. Xitoy Xalq Respublikasida manfaatlar to'qnashuvini huquqiy tartibga solish 2015-yilning mart oyida Xalq vakillarining umumxitoy majlisi 12-chaqirig'ining 3- sessiyasida xalq deputatlari guruhlar tomonidan kiritilgan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi XXX qonuni doirasida amalga oshirilishi nazarda tutilgan.

Korrupsiya jinoyatlari qarshi kurashda ijobiy yutuqlarga erishgan davlatlardan biri bu – Singapur davlatidir¹⁷. Aytish joizki, Singapur davlati Osiyo davlatlari ichida eng korrupsiya rivojlangan davlat hisoblangan. 1952-yilda Singapur davlatida korrupsiyaviy faoliyatni tergov qilish bo'yicha byuro tashkil etilgan. Ushbu byuro faqat bosh vazirga bo'ysunib, davlat va xususiy sektorda doimiy nazoratni olib borgan. Singapur davlatidagi amaldorlar har yili o'z mulki, shuningdek, oila a'zolari va farzandlariga tegishli bo'lgan kompaniyalardan oladigan ulushlari haqida ma'lumot berishlari shart hisoblangan. Agarda, mansabdor shaxsning boshqa tashkilotlar va shaxslardan pul mablag'larini yoki qimmatbaho sovg'a ko'rinishidagi buyumlarni olgani yoxud boshqa yashirin mol-mulklari mavjudligi byuro tomonidan aniqlansa, aybdor shaxslarga ozodlikdan mahrum qilish yoki 100 000 dollar jarima solingan. Agarda, amaldor shaxs yolg'on gapirgan bo'lsa, unga nisbatan 1 yilgacha qamoq yoki 10 000 dollar jarima to'lash tariqasidagi jinoiy jazo choralari qo'llanilgan. Agarda, bunday shaxslar

¹⁴ "Davlat xizmatidagi manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiya to'g'risida"gi Qonuni Закон Грузии от 17 октября 1997 г. №982 «О несовместимости интересов и коррупции в публичных учреждениях»Источник: <https://anticor.hse.ru/main/country/Georgia>© Антикоррупционный центр НИУ ВШЭ

¹⁵ [korea, <https://star.worldbank.org/sites/star/files/korea-ad-country-profile.pdf>]

¹⁶ Севальнев В.В. Противодействие коррупции: опыт КНР // журналзарубежного законодательства и сравнительного правоведения. 2014. № 1 (44). С. 89-96.

¹⁷ Терещенко И.А. Коррупция как фактор угрозы национальной безопасности Российской Федерации: политологический анализ : автореферат дис.... кандидата политических наук: М. 2010.



chet el fuqarolari bo'lsa, ularga jarima solinib, Singapur davlati hududida xo'jalik faoliyati bilan shug'illanish huquqi olib qo'yilgan.

Tadqiq etilayotgan masala yuzasidan xorijiy mamlakatlar tajribasini tahlil qilib aytish mumkinki, ko'pchilik xorijiy mamlakatlarda korrupsiyaga qarshi kurashish uchun maxsus dasturlar qabul qilinmoqda. Ular o'z ichiga bu turdagi jinoyatlarga qarshi kurashdagi keyingi huquqiy asoslarni rivojlantirish masalalarini, bu bilan shug'illanuvchi XMQO ning tegishli bo'linmalar faoliyatini yanada kuchaytirishni, ish faoliyatini samaradorligini oshirishni, korrupsiyalashgan jinoiy guruhlar yoki tashkilotlarga a'zo shaxslarni, shuningdek bunda gumon qilinganlarni telefon va boshqa so'zlashuvlarini eshitib turishni va guvohlarni xavfsizligi va huquqini ta'minlash masalalarini qamrab oladi¹⁸. Aytish mumkinki, bunday tajribalarni ijobiy tomonlaridan foydalanish bizning mamlakatimiz uchun ham foydadan xoli bo'lmaydi.

Rossiya. Xorijiy mamlakatlarning manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha huquqiy tajribasini o'rganishda huquq tizimi yaqin bo'lgan Rossiya Federatsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Hatto O'zbekiston Respublikasining bugungi kundagi korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati ham Rossiya modeli asosida ketayotganligini ko'rish mumkin.

Rasman ular bunday konfidensial ma'lumotlarni taqdim etish tartib-taomillarining mavjud emasligini, mavjud tartib esa davlat sektoriga tegishli ekanligini ko'rsatishadi. Yana bir Rossiya qonunchiligining xususiyati shundan iboratki, davlat xizmatchilarining manfaatlar to'qnashuvi ga yo'l qo'yg'anlik faktini aniqlash va mazkur faoliyatni tartibga solish uchun maxsus organ – Komissiyalar faoliyati yo'lga qo'yilgan¹⁹.

Rossiya Federatsiyasida manfaatlar to'qnashuvi va uni hal qilishga oid huquqiy normalar "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"²⁰gi Qonunning 10-11-moddalarida belgilangan. Rossiya Federatsiyasida manfaatlar to'qnashuvini tekshirish, aniqlash va hal etishga oid muammolar bilan RF Hukumati Davlat xizmati va kadrlar departamentining davlat xizmati masalalarini me'yoriy jihatdan tartibga solish bo'limi shug'ullanadi.

Aytish kerakki, Rossiya qonunchiligida davlat va munisipal xizmatdagi manfaatlar to'qnashuvi, shuningdek manfaatlar to'qnashuvining asosini tashkil etadigan "shaxsiy manfaatdorlik" tushunchalarining huquqiy tariflari kengroq yoritilgan. Shaxsiy manfaatdorlik obyekti bo'lgan moddiy qimmatliklarning turlari, shuningdek subyektlar doirasi aniq belgilangan.

Rossiyada manfaatlar to'qnashuvi tushunchasi uchta tarkibiy elementni o'z ichiga olishi nazarda tutiladi: shaxsiy manfaatdorlik; davlat xizmatchisining shaxsiy manfaatdorligi bilan

¹⁸ Кобец П.Н. О некоторых направлениях использования в отечественном законодательстве зарубежного и международного опыта предупреждения и пресечения коррупции в государственном аппарате / П.Н. Кобец // Следователь. - 2009. - №2.

¹⁹ Указ Президента РФ от 01.07.2010 N 821 "О комиссиях по соблюдению требований к служебному поведению федеральных государственных служащих и урегулированию конфликта интересов" http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_102226/b62a1fb9866511d7c18254a0a96e961d5154a97e

²⁰ LEX.UZ "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni 2017-yil



fuqarolar, tashkilotlar, jamiyat va davlatning qonuniy manfaatlari o'rtasidagi qarama-qarshilik; qonuniy manfaatlarga ziyon keltirish imkoniyati²¹.

Rossiya qonunchiligi nuqtai nazaridan bugungi kunda rus olimlari mamlakat manfaatlar to'qnashuvini huquqiy tartibga solishda quyidagi ikkita muammoga duch kelayotganligini ta'kidlaydi: ularning birinchisi hokimiyat vakolatlarini bajarish vazifalari yuklatilgan tashkilotlar bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi masala o'z daromadlarini deklaratsiya qilishga majbur bo'lgan kompaniyalarning ayrim rahbarlari belgilangan tartibda hisobot taqdim etmasligidadir.

Yuqorida nomi keltirilgan davlatlardan tashqari Moldova, Rossiya, Ukraina va Qozog'istonda manfaatlar to'qnashuvi ga oid talablarga rioya qilmaganlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilangan.

Qozog'iston Respublikasida esa, 2002-yildan buyon Prezident huzurida Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha komissiya faoliyat yuritadi. Shuningdek, davlat xizmatchilari odob-axloqiga oid masalalar bilan Davlat xizmati va korrupsiyaga qarshi kurash masalalari bo'yicha agentlik vakolatli organ hisoblanadi. E'tiborlisi, barcha viloyat va tuman (shahar)larda mazkur agentlik tomonidan faoliyati muvofiqlashtiriladigan Etika komissiyalari ham faoliyat yuritadi²².

Qozog'iston Respublikasining 2015-yil 18-noyabrdagi 410-V ZRK-son "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunining 15-moddasi manfaatlar to'qnashuvi borasida bo'lib, unga ko'ra:

1. Manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda mas'ul davlat lavozimini egallab turgan shaxslarga, davlat funksiyalarini bajarishga vakolatli shaxslarga, davlat funksiyalarini bajarishga vakolatli shaxslarga tenglashtirilgan shaxslarga, mansabdor shaxslarga xizmat vazifalarini bajarishi taqiqlanadi.

2. Ushbu moddaning 1-bandida ko'rsatilgan shaxslar manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va hal qilish choralarini ko'rishlari shart.

3. Ushbu moddaning 1-bandida ko'rsatilgan shaxslar manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan yoki uning yuzaga kelishi ehtimoli to'g'risida bevosita rahbariga yoki o'zlari ishlayotgan tashkilot rahbariyatiga yozma ravishda xabar berishga majburlar²³.

Xulosa qiladigan bo'lsak, xorijiy davlatlarning manfaatlar to'qnashuvini oldini olish va unga qarshi kurashish borasidagi qabul qilgan normativ huquqiy hujjatlari va ularni amaliyotga tatbiq etishdagi tajribalariga asoslanib shuni aytib o'tamizki, milliy qonunchiligimizda ham manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi, shuningdek aktivlar deklaratsiyasi to'g'risidagi qonunlarni tezroq amaliyotda joriy etishimiz kerak.

²¹ Федеральный закон Российской Федерации №273-ФЗ от 25.12.2008 "О противодействии коррупции". http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_82959/

²² Korrupsiyaga qarshi kurashish. Darslik. // Mas'ul muharrir: A.Sh. Bekmurodov: – Toshkent: "Akademiya", 2022. – 15 b.

²³ Закон Республики Казахстан от 18.11.2015 № 410-V ЗРК «О противодействии коррупции». URL: <https://base.spinform.ru/> (дата обращения: 12.06.2018).